

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Axrorova	
«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini	317
Г.М.Хошимов	
Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербиальным компонентом темпоральности.....	322
N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxobov	
Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida	329
M.Sharipova	
Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili	334
A.O'.Abdullayev	
Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari.....	337
O'.A.Xudoynazarova	
Islom ta'limoti asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar	344
F.R.Turg'unova	
Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rganish va auditoriyani jalb qilish	349
M.A.Abduvaxobova	
Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir	354
M.A.Kurbanov	
Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi.....	358
M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova	
Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish	364
M.Karimov	
"O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari	368
X.P.Муртозоев	
Вижагиҳои савти ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс.....	374
N.N.Odilova	
A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature	384
M.B.Shamsiyeva	
Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida.....	388
I.T.Rustamov	
Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni	392
K.Yu.Feryza	
Многоаспектная природа английских и русских провербиальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности	396
C.Э.Саидова	
Манзараи этники-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	401
G.A.Komilova	
Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi	406
C.Ч.Маҷитова	
Антропонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдурахмони ҷомӣ.....	410
M.A.Matmusayeva	
Maktabgacha ta'limda o'yinlar- soha terminlari sifatida	419
Y.Sh.Shuxratova	
Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir	423
H.H.Xoldorova	
Study of the concept of "Field" in modern linguistics	426
D.I.Mirzayeva	
Contextual-semantic analysis of fixed similes in english.....	429
K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi.....	432



UO'K: 821.512.133.09-31.

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI "FAMILLE" – "OILA" SEMANTIK MAYDONIGA DOIR

О СЕМАНТИЧЕСКОМ ПОЛЕ "FAMILLE" – "СЕМЬЯ" ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

ON THE SEMANTIC FIELD OF "FAMILLE" - "FAMILY" IN FRENCH AND UZBEK

Abduvaxobova Muqaddam Abdugopir qizi 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maydon nazariyasi bo'yicha jahon tilshunosligida qator ishlar amalga oshirilgan, biroq bu milliy tilshunosligimizda endi ommalashayotgan va ochilayotgan qonuniyat. Maydon va uning mohiyati nima? degan savolga javoblar ham turlicha. Ushbu maqolada fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" leksik-semantik maydoni qiyosiy nuqtayi nazardan tahlilga tortilgan. Tahlillar natijasida "oila" leksemasining uyadoshlari, "nikoh", "oila munosabatlari" maydonidagi umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlangan.

Abstract

A number of works have been carried out in world linguistics on field theory, but this is a law that is now being popularized and revealed in our national linguistics. What is the field and its essence? The answers to the question are also different. In this article, the lexical-semantic field "Famille" – "Family" in French and Uzbek languages is analyzed from a comparative point of view. As a result of the analysis, common and specific aspects of the lexeme "family", "marriage", and "family relations" were determined.

Аннотация

В мировой лингвистике выполнен ряд работ по теории поля, но это закономерность, которая сейчас популяризируется и раскрывается в нашем отечественном языкознании. Что такое поле и его сущность? Ответы на вопрос также разные. В данной статье лексико-семантическое поле «Famille» - «Семья» во французском и узбекском языках анализируется со сравнительной точки зрения. В результате анализа были определены общие и специфические аспекты лексемы «семья», «брак», «семейные отношения».

Kalit so'zlar: maydon, semantik maydon, tezaurus, ideografik lug'at, yadro, markaz periferiya, sema, semema, leksema, arxisema, uyadosh so'zlar, oila, "famille".

Ключевые слова: ареал, семантическая область, тезаурус, идеографический словарь, ядро, центральная периферия, сема, семема, лексема, архисема, вложенные слова, семья, "famille".

Key words: area, semantic area, thesaurus, ideographic dictionary, core, center periphery, seme, sememe, lexeme, archiseme, nested words, family, "famille".

KIRISH

Maydon nazariyasi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan sanaladi. Ma'lumki, lingvistik birliklarning muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirdi.

Bir qancha fanlar doirasida ham qo'llaniladigan maydon atamasi tilshunoslikda ma'no umumiyliги bilan birlashgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy o'xshashligini aks ettiruvchi birliklar yig'indisi ma'nosini bildiradi [1, 380.]

Masalan:

Yil fasllarini bildiruvchi so'zlar: bahor, yoz, kuz, qish

Tana-a'zolarini bildiruvchi so'zlar: ko'z, quloq, bosh, oyoq va h.

Dastlab, maydon nazariyasi tilning leksik sathida o'rganilib, tezauruslar yaratish, ideografik lug'atchilik amaliyoti uchun xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik X I X asrda lisoniy birliklarni mazmuniy guruhlariga ajratish g'oyasi Yevropada avj ola boshladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

G'arbiy Yevropa tilshunosligida Y.Trinning mazmuniy maydon nazariyasi so'zlarning leksik-semantik aloqalari haqidagi qarashlarda muhim o'rin tutadi [2, 32]. Ma'no va mazmun umumiylik bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetik yoki vazifaviy (funktional) o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari (asosan til birliklari) yig'indisiga ko'plab tilshunoslikka doir adabiyotlarda maydon sifatida ta'rif berilgan [1, 300].

Aytish joizki, tilshunoslikda maydon tushunchasi faol qo'llanilayotgan bo'lsa-da, haligacha o'z barqaror ilmiy tavsifiga ega bo'lgani yo'q. Maydonning tildagi asosiy xususiyatlaridan biri hududiy strukturaga egaligidir. Maydonning an'anaviy elementlari yadro, markaz va periferiyadir. Yadro va periferiyaga ajratuvchi asosiy mezonlar shartlilik, takrorlanish darajasi va yadro komponentlarining semantik to'lib turishi hisoblanadi [3, 60].

X I X asr leksik (umuman til) birliklar umumiylikiga M.Porkovskiy tomonidan e'tibor qaratildi. Maydon tushunchasining nazariy talqini I.Trir, G.Ipsen, V.Porsig, L.Vaysgerber, A.Yolles ishlarida ko'zgaa tashlanadi. Keyinroq, A.A.Ufimseva N.I.Filicheva, Y.N.Karaulov, G.S.Shchur kabilar ishlari bilan bu nazariya rivojlantirildi.

Maydon tushunchasining uzil-kesil shakllanishiga yordam bergan hal qiluvchi tadqiqotlardan biri L.Vaysgerberning ishlari bo'ldi. Vaysgerberning fikricha, tilni ruhiy mazmunning oddiy vositasi sifatida emas, balki dunyoning intellektual shakli sifatida o'rganish zarur. Uningcha semasiologiya ma'nolar xususidagi fan bo'lmay, tushunchalar haidagi ta'limot bo'lishi kerak [4, 123-162].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuni ta'kidlash joizki, lingvistikaga maydon nazariyasi semantik maydon tushunchasi sifatida kirib keldi. Leksik-semantik maydon tushunchasi til hodisalaridagi sistemaviylikni idrok qilish, leksemalar o'rtasidagi ichki tizim qonuniyatlarini ochib berish uchun yo'l ochdi. Bu yo'nalish ko'plab tilshunoslarning diqqatini o'ziga tortishi natijasida semantik maydon tushunchasi bo'yicha o'ziga xos lingvistik talqinlar yuzaga keldi. I.Trir mazmuniy maydon sifatida "tushunchalar maydoni", tushunchalar darasini nazarda tutdi. L.Vaysgerber "til mazmunining ma'lum qismi", "tarkibning bo'lagi", V.Porsig "ma'nolarning mohiyatan bog'liqligi", T.Ipsen mazmuniy va grammatik jihatdan bog'langan guruhni semantik maydon tarzda talqin etdi. A.Yolles esa, uni semantik birlashish deb nomlab, uning doirasida anatomik juftliklarni belgilaydi. F.Dornzayf va V.Vartburglar til lug'aviy tarkibi ajralish mumkin bo'lgan semantik guruhlarda mazmuniy maydonni ko'radilar.

Mazkur ilmiy qarashlar asosida fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydonini leksik, semantik, paremiologik guruhlarda qiyoslash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning uchun dastlab "Oila" leksemasining uyadoshlarini aniqlab olamiz. O'zbek tilida "oila" leksemasiga uyadosh bo'luvchi so'zlar ko'p emas, va ular kontekst ichidagina o'sha mazmunga ega bo'ladi. Ular quyidagilar:

Oila: ro'zg'or, xonadon, uy, turmush.

"Yoqub to'ram kallasini salgin aboshqacha ishlatgan edi, hayotida tubdan burilish ro'y berdi: kissasi pul ko'rdi, **ro'zg'origa** kirdi, nomi mahalla-ko'yni og'ziga tushdi, hammasidam ham, begonalar tugul, uyidagi bola –chaqalarigacha uning izzat-hurmatini joyiga qo'yadigan bo'lishdi!" (X.Do'stmuhammad. "Yoqub izquvarning hiylasi").

"Qobil karvonning qamoqqa olinishi Abdurahmonboy **xonadonini** qattiq tashvishga solib qo'ydi". (H.G'ulom, Mash'al).

"Uydagilar meni havoyiroq bo'lib qolganimni bilishadi". (S.Siyoyev, "Yorug'lik").

"U **turmushi** omonat ekanini, qachondir oilasi buzilishini ko'pdan ko'ngli sezib yurar, ammo bunchalik sharmanda bo'lishini o'ylamagan edi". (O'.Hoshimov, "Qalbingga quloq sol").

Fransuz tilida esa, "Famille" so'zining uyadoshlari jami 24 tani tashkil qiladi:

"Famille"ning uyadoshlari: **ascendance, branche, clan, descendance, espèce, foyer; génération, lignage, maisonné, postérité, race, smala, bercail, catégorie, classe, dynastie, filiation, généalogie, groupe, lignée, ménage, progéniture, sang, tribu**. Misollarga murojaat qilamiz:

"J'travailis du matin au soir pour nourrir la **smala**". – Henri Barbusse (1873-1935).

"Il est lignager, c'est à dire que ce domaine appartient au **lignage** ou à la famille qui use de ce droit". – Montesquieu (1689-1755).

"La **maisonnée** n'aime pas à renoncer aux services de ses jeunes filles". – *élie Reclus*(1827-1904).

"Drole de relation avec un chanteur dont il ne connaît que l'oeuvre et la **postérité**". – *Ouest-France*, 30/11/2015.

"**Le mariage, la famille**" leksik maydoni: *le père, la mère, les enfants*.

Biz bu yerda tipik o'zbek oilalaridan farqli fransuz oilalarini nuklear oilaga misol qilishimiz mumkin. Chunki, ko'p hollarda ular ota-ona – farzandlar, yoki faqat ota-ona jamoasidan tarkib topganini ko'ramiz.

"**La parenté**" : *frère(aka), soeur(opa), nièce/neveux(jiyan), grand-père(bobo), grand-mère(buvi), petits-enfants(nabira), oncle(tog'a, amaki), tante(xola, amma), cousin, cousine*.

La Parenté (qarindoshlik) fransuz tilida bu so'z Littrega ko'ra 2 xil ma'noga ega bo'lishi mumkin: bir tomondan u qondoshlikni, boshqa tomondan bir shaxsning barcha qarindoshlari va ittifoqchilarini anglatadi. Fransuz tilidagi *tante* qarindoshlik atamasi o'zbek tilidagi ham amma ham xolani bildiradi. Tog'a va amakini chaqirish uchun esa birgina *oncle* atamasini qo'llaydilar. **Amakivachcha, xolavachcha, tog'avachcha, amnavachcha** nomlari esa birgina **cousin / cousine** atamasi bilan qo'llaniladi. Rasmiy ma'lumot va hujjatlarda ular:

Cousin germain – amaki va ammaning farzandlari (amakivachcha,) **cousin par alliance** – xola, tog'aning farzandlari (xolavachcha, tog'avachcha) atamaları bilan farqlanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda semantik maydon deganda odatda "umumiy (o'zgaras) ma'no bilan birlashgan va tilda ma'lum konseptual sohani aks ettiruvchi leksik birliklar majmusining ierarxik tuzilishi" [5, 458-459] tushuniladi. Mazkur nazariya asosida Famille-Oila leksik-semantik maydonini ham ko'ptarkibli maydon deb oladigan bo'lsak, uni ikki mikromaydonga ajratish to'g'ri bo'ladi deb hisoblaymiz. Bu mikromaydonlarni "Nikoh, oila maydoni" va "Qon-qarindoshlik" maydoni, deb ajratish mumkin.

O'zbek tilida va fransuz tilida "**Nikoh, oila**" leksik maydoni *er, xotin, og'il, qiz, ota, ona, bobo, buvi, yaqin qarindoshlarni* o'z ichiga oladi.

Aytish kerakki, biz nikoh, oila leksik maydonini periferik ya'ni er-xotin va ularning farzandlari, yaqin qarindoshlar (bobo, buvi, amaki, amma va hok.) dan tarkib topuvchi tuzilma deb oldik. Sababi o'zbek oilalariga ko'pbolalik, qarindoshchilik, bir necha avlodlarning birga yashashi xosdir. Lekin hozirgi kunda o'zbek jamiyatida avlodlar almashunivi va qator boshqa sabablar tufayli nuklear oilalar soni ortmoqda. Masalan, 2020-yil ko'rsatkichi bo'yicha nuklear oilalar 50,2 % ni, katta avlod, bobo va buvilar bilan yashovchilar esa 36,9 % ni tashkil etadi [6]. Ammo katta avlodning oilaviy munosabatlardagi, farzandlar tarbiyasidagi ahamiyati saqlanib qolmoqda.

"**Qon-qarindoshlik**" leksik maydoni esa *bobo, buvi, amaki, tog'a, amma, xola, kelin, kuyov, pochcha, jiyan, quda, qaynota, qaynona, qaynaka, qaynuka, qaynopa, qaynsingil, ovsin, boja, yanga, kelinoyi, amakivachcha, xolavachchalarni* o'z ichiga oladi.

Jigar – jigar, digar – digar. Jon tortmasa, qon tortar. Enasi tepgan qulunning eti og'rimas.

Qo'yningdan to'kilsa, qo'njiga. Qo'l sinsa, yeng ichida. Begona el bo'lmas.

Qon-qarindoshlik maydonini o'rganar ekanmiz, o'zbek oilasining patriarxal ekanligiga e'tibor qaratamiz. Buning ifodasini ota tomondan qarindoshlarning nominatsiyasi onanikiga qaraganda ko'proq qo'llanilishida ham kuzatishimiz mumkin:

Amma keldi – hamma keldi. Qaynim – qaymoq yog'im, qaynsinglim – yurakdog'im. Qiz ammaga o'xshar, o'g'il tog'aga.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Famille-Oila leksik-semantik maydoni periferik, ya'ni ko'ptarmoqli mavzu bo'lib, o'z ichiga boshqa kichik mikromaydonlarni ham kiritadi. Bu maydonni aynan oila va qarindoshlik munosabatlari jihatidan o'rganish, uning fransuz va o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan umumiy va xususiy tabiatini yaqqol namoyon etadi. Famille va oila leksemalarining uyadoshlarini aniqlanganda o'zbek tilidagi oila leksemasidan fransuz tilidagi Famille leksemasining uyadoshlarini miqdori jihatdan ko'p ekanligi bilindi. Famille-Oila maydoni ijtimoiy jihatdan qaralganda esa, o'zbek oilalarini ko'pa'zoli oilaga, fransuz oilalarini esa nuklear oilaga misol qilib olindi. Qon-qarindoshlik munosabatlari va qadriyatlari o'zbek madaniyatining asosiy xususiyatini ko'rsatib beradi. Buning yaqqol misolini qon-qarindoshlikka xos maqol-matallarida uchratamiz. Fransuz tilida esa,

TILSHUNOSLIK

qarindoshlik atamalarining bir nechtasini umumiy bitta nominatsiya bilan nomlanganini uchratdik. Bundan va boshqa tahlillardan seziladiki, fransuz tilida qon-qarindoshlik munosabatlari qadriyat darajasida katta ahamiyatga ega emas.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Советская энциклопедия 1990.
2. Iskandarova Sh. Leksikani mazmuniy maydon asosida o'rganish muammolari. Uzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «Fan» nashriyoti, 1998.
3. Эргашева М.В. Оламинг лисоний манзараси ва семантик майдонларга бўлиниши // Молодой ученый. — 2016. — №3.1(107.1).
4. Гухман М.М. Лингвистическая теория – Л. Вайсгербер. – Вопросы! Теории языка в современ. заруб. лингвистике». М., 1961.
5. Новиков Л.А. Семантическое поле / Л.А. Новиков // Русский язык. Энциклопедия. – М.: Большая Рос. Энцикл.; Дрофа, 1997.
6. <https://www.ijtimoiyifkr.uz>